

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

42 750

117,8 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

38 855

119,0 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


2 181

82,7 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxona va
tashkilotlarning
umumiyl soni o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **27,2** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni 8 888 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxona va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 27,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 25,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 36,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 22,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,9** foizga oshdi




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3 218 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish o'tgan yilga nisbatan – 8,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan – 15,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,9 %) hamda bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 10,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 62,3 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 11 095 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 23,9 % ga (jami savdodagi ulushi 65,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 27,5 % ga (jami savdodagi ulushi 27,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 29,0 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

11



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

12

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

904



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

16



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

7



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



125

yashash bo'yicha xizmatlar



1 763

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 888 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 10,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,4 %), yashash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 7,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,6 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)


13



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

14




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

15



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,4 foizga oshdi**



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



2,5 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
50,0 mfoizga oshdi



Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 2 947 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 789 taga yoki 36,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 746 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 758 taga yoki 38,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-aprel oylarida 164 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 27 473 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 430 taga yoki 24,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 25 465 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 213 taga yoki 25,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 821 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga yoki 0,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

18




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra, 376 tani tashkil etib, ulardan 355 tasi yoki 94,4 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 40 taga yoki 11,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)



**Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

19

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Rossiya Federatsiyasi	75	50	25
Qirg'iz Respublikasi	42	25	17
Belarus Respublikasi	9	5	4
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Ozarbayjon Respublikasi	5	4	1
Ukraina Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	2	2	0
Turkmaniston Respublikasi	1	0	1


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdiridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,1 %, Qirg'iz Respublikasi 11,8 %, Belarus Respublikasi 2,5 %, Qozog'iston Respublikasi 2,0 % va Ozarbayjon Respublikalarida 1,4 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

20



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	155	181	249	317	355
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	8	18	25	23
Sanoat	118	138	163	182	201
Qurilish	7	7	11	21	21
Savdo	7	13	27	40	50
Tashish va saqlash	4	2	2	2	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	9	10
Axborot va aloqa	0	0	2	4	4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	1	1	5	5
Boshqa turlar	7	6	18	29	38

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

21



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

22


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	355	214	141
Oltinko'l	19	13	6
Andijon	31	23	8
Baliqchi	7	2	5
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	13	9	4
Jalolquduq	13	7	6
Izboskan	7	4	3
Ulug'nor	6	4	2
Qo'rg'ontep'a	9	7	2
Asaka	20	15	5
Marhamat	14	7	7
Shahrixon	26	16	10
Paxtaobod	8	6	2
Xo'jaobod	13	10	3
Andijon sh.	143	70	73
Xonobod sh.	19	14	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 143 ta (jamidagi ulushi 40,3 %), Andijon 31 ta (8,7 %), Shahrixon 26 ta (7,3 %), Asaka 20 ta (5,6 %), Oltinko'l 19 ta (5,4 %), Xonobod shahri 19 ta (5,4 %), Marhamat 14 ta (3,9 %), Xo'jaobod, Jalolquduq va Buloqboshi tumanlarida 13 tadan (3,7 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

23



2021- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,2 %), Asaka (9,0 %), Andijon (7,3 %), Shahrixon (6,8 %), Oltinko'l (5,1 %), Qo'rg'ontep'a (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,9 %), Marhamat (4,5 %), Jalolquduq (4,0 %), Paxtaobod (3,8 %), Xo'jaobod (3,6 %), Buloqboshi (3,1 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %), tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (27,0 %), Asaka (9,4 %), Andijon (9,3 %), Shahrixon (6,2 %), Baliqchi (5,7 %), Paxtaobod (5,4 %), Izboskan (5,0 %), Xo'jaobod (4,4 %), Oltinko'l (4,4 %), Qo'rg'ontep'a (4,1 %), Jalolquduq (3,9 %), Bo'ston (3,9 %), Buloqboshi (3,7 %), Marhamat (3,6 %), Ulug'nor (2,0 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

24



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (35,5 %), Asaka (7,4 %), Andijon (6,9 %), Shahrixon (6,8 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,6 %), Baliqchi (4,4 %), Xo'jaobod (4,4 %), Qo'rg'ontep'a (4,3 %), Marhamat (4,2 %), Paxtaobod (4,1 %), Jalolquduq (3,9 %), Buloqboshi (3,0 %), Ulug'nor (1,8 %), Bo'ston (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

25




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)


26



2021-yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (20,7 %), Andijon (15,3 %), Qo'rg'ontepa (14,0 %), Andijon shahri (11,0 %), Shahrixon (9,8 %), Asaka (9,8 %), Izboskan (6,1 %), Baliqchi (4,3 %), Buloqboshi (2,4 %), Oltinko'l (1,8 %), Xonobod shahri (1,2 %), Paxtaobod (1,2 %), Marhamat (1,2 %), Xo'jaobod (0,6 %) va Jalolquduq (0,6 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistical Committee of Uzbekistan. At the top, there is the national emblem of Uzbekistan, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the 'UZSTAT' logo. Below this, there is a blue navigation bar with the text 'Orqaga qaytish' (Back). The main content area has a light blue background. It features a large text 'Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot' (Information about companies and organizations). There are two input fields: 'STIR kodini kriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdag'i kodini kriting' (Enter official code). Between them is a green button with the text 'Agar tushunarsiz bo'sa, rasmni bosing.' (If you don't understand, click the official seal). Below these fields is a blue button labeled 'Ochish' (Open). At the bottom of the page, there is a blue footer bar with the text 'O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi' and '2020 yil.'

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi**
Tel.: (74) 228-29-74